

O`ZBEKISTONDA GENDER MUNOSBATLARI TARIXI

*Ahrorova Madina Rahmatovna**O`zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti**madinaakhrorova@gmail.com**tel:99893 680 44 15***ANNOTATSIYA**

Bugungi globalashuv sharoitida shiddat bilan rivojlanayotgan feminizm masalasi eng dolzarb tadqiqotlardan biriga aylanib bormoqda. Ayollarning jamiyatda o`z o`rnini topishi, ularga nisbatdan har qanday tazyiq va zo`ravonlikka qarshi kurashish ma`rifiy targ`ibot jihatdan yaxshi yo`lga qo`yilmoqda. Maqolaning ob`yekti ana shu dolzarb muammoning tarixiga qaratilgan

Kalit so`zlar: mentalitet, Avesto, oila, Ahuramazda, qur`on, hadis, jaholat.

KIRISH.

Gender tenglik masalasi nafaqat Yevropa balki, bizda ham yaxshi yo`lga qo`yilayotgan ijtimoiy munosabatlardandir. Xususan, bu borada 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to`g`risida” O`zbekiston Respublikasining qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o`rniga qaratilgan huquqiy himoya, huquqiy kafolat siaftida ma`qullangandi.

O`zbekiston Respublikasi qonunchilik palatasining “Erkaklar va ayollar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlar kafolatlari to`g`risida”gi QL-536-sonli O`zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida, hamda, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo`ravonlikdan himoya qilish to`g`risida”gi QL-537-sonli O`zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi va ularning bugungi kundagi ijrosi natijasi Respublikasimizda tashkil etilgan “Xotin qizlar qo`mitasi, “Respublika oila markazi” fikrimizning yaqqol isbotidir.

Shu o`rinda savol tug`ilishi mumkin bizda ayollarga bo`lgan munosabat o`tmishda qanday bo`lgan. Shiddat bilan rivojlanib kirib kelayotgan g`arb madaniyati va mentalitetidan olin bizda gender tenglik masalalari qadimda davlatchiligimiz tarixida mavjud bo`lganmi?

ASOSIY QISM

Ko`hna Sharq tarixi haqida ma`lumot beruvchi eng qadimiy manbalarda biri bo`lgan “Avesto” da ham oila, uning o`rni, unda ayollarning huquq va burchlari, xotin – qizlarning jamiyatda tutgan o`rni, onalarning oiladagi mavqeyi kabi masalalarga to`xtalib o`tilgan. Bu be`jiz emas albatta chunki xotin – qizlar kelajak avlodni dunyoga keltiruvchi va uni tarbiya etuvchi mo`tabar zotlar hisoblanishadi. Shuning uchun ham Zardushtiylik dinida qiz bolaning tarbiyasiga, hunar egallashiga alohida e`tibor

qaratilgan. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra har bir ota – ona o'z qizini balog'at yoshiga etguncha o'z zamonasining barcha hunarlarini bilishini taminlashi, mol boqish-u ro'zg'or tutishni mukammal o'rgatish, e'tiqodda bosiq, pokiza qilib tarbiyalashi zarur qilib belgilangan[1]. Bu jihatlar birinchidan qiz bolani saramjomlik, pokizalik va isrofgarchiliksiz hayot kechirishini ta'minlasa, boshqa jihatdan yangi hayotda qiynalmasligini va o'sha joy odamlarini mehrini qozonishiga ko'maklashadi.

Buning uchun qiz bola ham ma'naviy, ham jismoniy jihatdan barkamol bo'lmog'i zarur. Bunda shubhasizki onaning roli va mavqeyi ancha yuksakdir [2]. Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" da baxtli makon haqida so'z yuritiladi. Zardusht Axuramazdadan dunyodagi eng baxtli joyni so'rganida u "Bunday joy bir Ashovan uy tiklagan makondir. O'sha makonda mo'bad ro'zg'or tebratadi. Uy bekasi, farzandlar, sigirlar galasi va suruvlar yashaydi. Bu uyda sigirlar galasi yaxshi parvarish etiladi. Uy bekasi baxtiyor, farzandlar shodmon. Hamisha olov gurillab turadi" deb javob beradi. Yuqoridagi jumladan ham ko'rinib turibdiki, ayol o'zini baxtli sezgan makon dunyodagi eng baxtli makondir.

Ayol o'zini sevimli yori va bolalari davrasida baxtli bo'lishini hisobga olsak shubhasiz eng baxtli joy bu - oila hisoblanadi. Demak, ko'rinib turibdiki, bir ayolning zimmasiga erkaklar barobarida farzandlar tarbiyasidek ma'suliyatli vazifa yuklatilib qo'yilgan. Azaldan qizlarimizga uy-ro'zg'or odobi, farzandlar tarbiyasi va yaxshi xulq-atvor egasi bo'lib tarbiyalanish baxti berilganki, demakki ko'rinib turibdiki, bundan taxminan 3 ming yil muqaddam yurtimiz diyorida ayollarga ehtirom baland bo'lgan. Masalan davlatchilik tariximizdagi yana bir muhim manba so'g'd hujjatlarida nikoh-oila munosabatlari aks ettirilgan bo'lib, 4-raqamli so'g'diy tildagi hujjatda "O'ttegin va Dudg'uncha orasida tuzilgan nikoh shartnomasi va unda rafiqa Dudug'unchaning nikoh munosabatlaridagi haq- huquqlari hujjatda o'z ifodasini topganligi[4,126] o'sha davrlarda ham ayollarning op'z o'rni borligini ko'rish mumkin.

Keyingi asrlarga kelib yurtimiz tarixida va madaniyatida bir qancha millat va elatlar qo'shilib dunyoqarash o'zgarganligini ko'ramiz. Endilikda ayollar nafaqat oila, farzand tarbiyasi, balki, davlat boshqaruvidek ma'suliyatli vazifalarda podshohlarga vazir sifatida turishganini ko'rishimiz mumkin. Davlatchilik tariximizda hukm surgan sulolalar Eftalilar va turk xoqonligining tangalari ana shunday tarixiy haqiqatdan guvohlik beradi.[Usmon Qoraboyev]

Ta'kidlab o'tganimizdek, davlatchiligimiz tarixida bir qancha sulolalarning hukmronligini ko'rish mumkin. Arablar VIII asrda Movaraunahrni zabt etib o'zlarining islom davlatlari muzofotini bizning hududlarga nisbatn kengaytirdi. Tabiiyki, arablar bilan birga islom dini va mafkurasi kirib keldi. Ko'pchilik g'arbparast olimlarning bergan tadqiqot natijalariga ko'ra arablar johiliya davrini bizning hududlarga ham olib kirdi, arablar kelib bizning ayollarimiz yopinib yuradigan bo'ldi degan fikrlarni bildirishgan.[5]

Asl islom manbasi bo`lmish qur`onda ayollarga nisbat qanday berilgan?

ADABIYOTLAR TAHLILI

“Nikoh (imkon)ni topa olmaganlar, to Alloh ularni O`z fazlidan boy qilguncha, iffatlarini saqlasinlar. Qo`llaringizda mul bo`lganlardan (ozodlik) vasiqasini istaydiganlari bo`lsa, bas, ularda yaxshilik borligini bilsangiz, ular ila vasiqa yozing va Allohning sizga bergan molidan ularga bering. Hayoti dunyoning o`tkinchi matohini istab, poklikni iroda qilgan (cho`ri) qizlaringizni fohishalikka majbur qilmang. Kim ularni majbur qilgan bo`lsa, bas, albatta, Alloh ular majbur qilganlaridan keyin o`ta mahfiratli va rahimli zotdir”

Mashhur tafsirchi Suddi bu haqda qo`ydagilarni aytadilar: “Ushbu oyat munofiqlarning boshlig`i Abdulloh ibn Ubay ibn Salul haqida nozil bo`lgandir. Uning Muoza ismli joriyasi bor edi. Uyiga mehmon kelsa, mehmondan biror narsa undirish maqsadida joriyasini unga qo`shib berar edi. Joriya Abu Bakr roziyallohu anhu oldiga kelib, bu haqida shikoyat qildi. Bas, Abu Bakr roziyallohu anhu bu ishni Rosululloh sallallohu alayhi vasallamga aytdilar. Ul zot sallallohu alayhi vasallam unga joriyani o`z huzurida olib qolishlarini amr qildilar. SHunda Abdulloh ibn Ubay: “Muhammaddan menga kim yordam beradi. Joriyalarimizga ham ega chiqmoqda!” deb baqirib-chaqira boshladi. SHunda Alloh taolo mazkur oyatni nozil qildi”.

Haqiqatdan ham ayol o`z haq-huquqlarini Islomdan boshqa dinda topmadi. Islom dini kelib, ayol mukarram bo`ldi. Islom dini kelib, ayol o`z nafsoniyatini tanidi. Islom dini kelib, onalar qadami ostida jannat borligi aytili. Ayol Islom dinida nafaqat o`z haq-huquqlarini balki yaratgan parvardigorining roziligini topuvchi yo`llarni topdi. Alloh taolo O`zi yaratgan xalqiga nima foyda va nima zarar ekanligini O`zi bilguvchi zotdir.

Qur`oni karimda “Niso” (Ayollar) nomi bilan alohida sura nozil qilingan bo`lib, unda meros va ayollarga muomala qilish hukmlari bayon etilgani dinimizda ularning ehtirom qilinganini ko`rsatib beradi.

Alloh taolo “Niso” surasida bunday marhamat qiladi:

“Erkaklar xotinlar ustidan (oila boshlig`i sifatida doimiy) qoim turuvchilardir. Sabab – Alloh ularning ayrimlari (erkaklar)ni ayrimlari (ayollar)dan (ba`zi xususiyatlarda) ortiq qilgani va (erkaklar o`z oilasiga) o`z mol-mulklaridan sarf qilib turishlaridir. (Ayollar ichida) solihalari – bu (Allohga va eriga) itoatli, g`oyibga Alloh saqlaganicha himoyatli (ya`ni, erlarining sirlari, mulklari va obro`larini saqlovchi)lardir. Xotinlarning itoatsizligidan qo`rqsangiz, avvalo ularga nasihat qilingiz, so`ngra (bu ta`sir qilmasa,) ularni o`rinlarda (aloqasiz) tark etingiz, so`ngra (bu ham kor qilmasa) ularni (majruh bo`lmagudek darajada) uringiz. Ammo sizlarga itoat qilsalar, ularga qarshi (boshqacha) yo`l axtarmangiz. Albatta, Alloh oliy va ulug` zotdir (“Niso” surasi, 34-oyat).

Alloh taolo ushbu oyati karimada soliha ayolning sifatlarini bayon qilib, ortidan itoatsizlik sodir etgan ayolga rahm-shavqat bilan, bosqichma-bosqich qilinishi kerak bo'lgan muomala uslubi haqida ta'lim bermoqda. Bu uslub – avval chiroyli pand-nasihahat, so'ngra shunda ham itoat qilmasa, o'rinlarini alohida qilish, bu ham kor qilmasa, qattiqroq chora – ozor bermaydigan darajada ta'zir berishga izn berilishidir. Ushbu ta'lim mehribon va rahimli bo'lgan Alloh taolo tomonidan ayollarga bo'lgan izzat-ikrom namunasi desak, adashmagan bo'lamiz.

Ayollarga bo'lgan ikromning namunalaridan yana biri shuki, ushbu surada ayollar va erkaklar lafzlarining teng miqdorda keltirilganidir.

Islom fiqhshunosligi va shariat ilmlarining rivoji o'rta asrlarda aynan bizning allomalarimiz asarlarida mufassil bayon etilgan. Xususan, mashhur hadis ilmining sarvari Imom al-Buxoriy "al-adab, val mufradot" asarida ayollar haqida quyidagi hadisni keltirib o'tadi.

Anas ibn Molik (r.a.) dan rivoyat qilindi, u kishi: "Rasululloh (s.a.v.) ahli ayollarga juda rahm-dil kishi edilar. Ibrohim degan o'g'lilari Madinaning bir chekkasiga sut emish uchun yuborilgan edi. Bolaga sut emizadigan xotinning eri izxir yoqib tirikchilik qilardi. Biz Rasululloh (s.a.v.) bilan unikiga borganimizda, uying ichi tutun bilan to'lganiga qaramay Rasululloh (s.a.v.) bolani o'par va bo'yini iskar edilar", dedilar.

Yana bir hadisda Qizaloqni o'pish haqida quyidagi mulohazalar keltirilgan.

Abdulloh ibn Ja'far (r.a.) Umar ibn Abi Salmaning ikki yoshga to'lar-to'lmas qizchasi Zaynabni o'payottanini ko'rdim, dedi Mahramaning otasi Bakkir (r.a.).

Hasan Basriy (r.al.) dan rivoyat qilindi. U kishi: "Xotining yoki qizchangdan bo'lak bola-chaqalarindan birortasining sochiga ham qaramaslikning uddasidan chiqa olsang, qarama", dedilar. [6]

Ushbu hadislardan quyidagi xulosalarni keltirish mumkin: Islomda ayollarga rahm qilish, hurmat izzatda ko'rish birinchi hadisda keltirilgan bo'lsa, ayollar iffatini yoshlikdan asrab avaylash (hatto o'z otalaridan) mahramiyat chegaralari go'zal misollar bilan keltirilgan.

Islom ayollarni yuksaklikka ko'targan ularga nisbatan ehtiromni shakllantirgan din sifatida tarixga muhrlandiki, keyinngi asrlarda asosi islom bo'lgan davlatlarda ham ayollarga nisbatan ehtirom baland bo'lgan. Masalan Temuriylar davrida shahzodalarni tarbiyalashdek ma'suliyatli vazifa ayollar zimmasida bo'lgan. Amir Temurning yonida vazir sifatida maslahat berib turgan Saroy mulxonim ham tariximizdagi buyuk ayollardandir.

Ayollar hamma zamonlarda ham juftlarining bir yarmi sifatida ham oilada ham jamiyatda sodiq bo'lganlar. "Ikki yorti bir butun" degan tushuncha aynan shu davrlarga nisbatan aytilgan. Lekin ba'zi bir davrlar bo'lganki, davlatchiligimiz tarixida jamiyatda shaxs sifatida ayollarning mavqei roli va ahamiyati ikkinchi darajada tushib qolgan.

Mutt'asiblik hukmron bo'lgan o'zbek xonliklari davrida mana shunday munosabat bildirilgan. Ushbu davr haqida Anbar Otin o'zining "Qoralar falsafasi" da shunday deydi: Risolaning ikkinchi faslida Anbar Otin o'sha davrdagi ayollar ahvolini, ularning bevosita va bilvosita ijtimoiy kamsitishlar natijasida o'z iqtidori, iste'dodi, latofatini namoyon qila olmasliklarini aytib o'tadi. Ular, hatto, ko'cha-ko'ylarga zarurat yuzasidan, masalan, qarindosh-urug'larini ko'rgani borish uchun chiqqanlarida, eski paranjiga o'ranib, - kampirlar kabi bukchayib yuradilar. Chunki agar qaddi qomatini adl tutib, yoki ochilib-sochilib yursalar, unlarga erkaklar tajovuz qilishlari mumkin. Bunday axloqsizlikning ildizi ijtimoiy adolatsizlikka borib taqaladi: kambag'alligi tufayli uylanish, oila boshlig'i bo'lish huquqidan mahrum bo'lgan bunday erkaklar qaraydi: bu ijtimoiy-axloqiy illatlar albatta o'tib ketadi, hurlik, tenglik zamonlari keladi. Mana bu haqda Anbar Otinning o'zi nima deydi: «Bir zamoni bo'lurki, kamina mushtipar kabi olijanob orzu qilg'ondan ziyoda bo'lur... alar nima zulumalar avlodi xatarsiz tavallud o'lib, yaxshi parvarish topub, hushro'y va hushho'y, botamiz va vatando'st, serg'ayratu mehmondo'st bo'lub, kamolg'a etar. Ul zamonda barcha xalq sohibjamol bo'lur... [3: 54].

Vaholangki, ular ham yashashga, ilm olishga, jamiyatda o'z o'rnini topishga va eng asosiysi orzu qilishga haqli edi. Buni o'z ash'orlarida ifoda etar edilar:

Ul zamonda odam axloqi ul darajag'a eturki, mijozga lahotunlik rusumini tark etar va har er bitta hotin ila farog'atvor kun kechirgay...

Ul vaqt qizlar ilmi dunyoviy tahsilig'a muyassar bulub, urfon tahtida qaror topib, ellar va ulug'lar safig'a doxil bo'lurlar, alar hayrat va mehnatda erlarg'a hamfo va yovar bo'lub, obro' topib, hurmat va ikromg'a sazovor bo'lurlar.»[7]

MUHOKAMA NATIJALAR

Mumtoz shoirlar ijodini tahlil qilar ekanmiz, muamoning asl sababini va uning yechimi haqida to'xtalib o'tilganini ko'ramiz. Anbar otinning o'zi jamiyatning jaholat botqog'iga botish sababini shayxlarda deb biladi:

“albatta, aqlu idrok va jamoatg'a takya qilib, barcha shayh so'fiylardan yiroq va barcha tarsu vahmdin emin bo'lib, zolimlarg'a qarshi muboriza qilmoq, yakkalikdan hazar qilmoq, bu tadbirlar ila zulmni nobud etib, zulmatni bartaraf qilmoq zarurdir». [3: 78].”

Endi savol tug'iladi bizda xonliklar davrida boshlangan feminizm uchun stiixiyali kurash masalasi qachon ijtimoiy munosabatlarda dolzarb ahamiyatga egab bo'ldi?

VIII asrdan Islom aqidalari hukron bo'lgan davlatchiligimiz tarixida diniy mutta'siblarning sa'y-harakatlari natijasida ayollarning huquqi poymol qilindimi va yoki, undan keying davrlardami? Globallashuv sharoitida gender tenglik degan tushuncha qachon bizning ongimizda paydo bo'ldi?

Xalqimiz ongi yaqin o'tmish haqida bu tushuncha quyidagicha talqin qilinadi: go'yoki ruslar kelib ayollar ozodlikka chiqdi. Ular ham erkaklar bilan teng huquqli bo'ldi. Shu o'rinda bir savol ruslardan oldin ayollarning huquqlari yo'qmidi? Butun boshli millat

tarbiyasini ayollar qo`liga ishonib topshirib ularni oilada ro`zg`orda rahbar etib tayinlanishiyu, erkaklarning ko`chadar o`zg`or tashvishi bilan tirikchilik uchun zimmasidagi oila ta`minoti masalasi gender tenglik emasmi?

Barchamiz Abdulla Qodiriyning “O`tgan kunlar” asarini o`qiganmiz. Unda aynan biz aytayotgan xonliklar davridagi manzara tasvirlangan. Ya`ni O`zbek oyimning hovlisi: keldi ketdi uchun mo`ljallangan tashqari hovli va ayollarni nommahram ko`zlardan asrash uchun ayollar yuradigan ichkari hovli. Endi hozirgi uylarni solishtirsak, baland ko`p qavatli uylar balkonda turib shahrni tomosha qilsangiz bo`ladi, hattoki qo`shningizning uyini ham...

Men bir maqolga hech tushunmayman: “Er-xotin qo`sh ho`kiz” menimcha bu o`zbek xalq maqoli emas! Bu o`tgan asrimizda ayollarning ham mehnati ehtiyoji asosida ishlangan maqol. Chunki kapitalizm rivojlangan mamlakatlar mustamlakachilik siyosatini olib borgan bir vaziyatda zabt etilgan o`lkalarda mamlakatdagi zavod va fabrikalarda nafaqat erkaklar balki, endi ayollar ham jalb qilina boshlandi. Endilikda ayollar erkaklar bilan barobar fabrikalarda mehnat qilishdi, texnikumlarda tahsil oilishda va yana kamiga zimmalarida oila ro`zg`or tashvishlari-yu farzand tarbiyasi degan yukni orttirishda haqiqiy qo`sh ho`kiz! Lekin tenglik erkinlik qayerda? Men bu fikr bilan ayollarning faqat uy yumushlari va oilada mashg`ul bo`lishsin ana tenglik degan tushunchalardan yiroqman. Ayol qachon baxtli bo`ladi? Qachonki sevgan mashg`uloti va yoki kasbi bilan mashg`ul bo`lsa. Buning uchun har doim vaqt topadi. Faqatgina men bir narsani tushunmayman. Yuqorida bildirilgan fikr ya`ni ruslar kelib ayollar ozodlikka chiqdi degan fikr menimcha not`og`ri. Axir o`tmishda emasmi ayollarning mavqei baland ko`tarilib vazir darajasigacha ko`tarilgan (Saroymulxonim, Nodira) Mustamlakachilik davrida ishchi kuchiga bo`lgan ehtiyoj va uning ayollar hisobi o`rniga to`ldirilmaganmi, ayniqsa birinchi ikkinchi jahon urushlari davrida ayollar ham kalxozda va zavodlarda erkaklar o`rnida ishlagani tarixiy faktku. Bu iqtisodiy ehtiyoj natijasida erishilgan ozodlik deb aytish mumkin. Paradoksni qarangi, aynan shu ehtiyoj natijasida bir qancha ayollar tarixda qolga. Masalan ikkinchi jahon urushi davrida qahramonliklari bilan tarixda qolgan snayperchi Zebo G`aniyeva, fermer traktorchi Lola Murodova va b.

XULOSA

Xulosa o`rnida aytadigan bo`lsam gender tenglik degan tushuncha bizda bo`lgan ilk o`rta asrlarda so`g`dd abo`lgan nikoh munosabatlarida ayollarning haq- huqulari ifodalanganligi. Arablar davriga kelib bu eng yuqori cho`qqida bo`lgan. Ayollarni begona nigohlardan asrash maqsadida uylarga katta kichik halqalarning qo`yilishi, mahramiyat masalalrida ayollarni asrab avaylash (yuqorida hadislardan misol keltirildi.) bu gender emasmi, Azaldan erkaklarimiz ayollarga nisbatdan hurmat bildirib ularni issiq sovuqdan asrab o`zlari ko`chada mehnat qilib ayollarni uyda farzandlar tarbiyasiyu jamiyatning kichik bir bo`g`ini oilada ish yuritish kabi vazifani

zimmalarariga olganliklari gender tenglik emasmi. Bugungi kunda ayolini chetga ishlashga yuborib o`zi farzandlari bilan uyda o`tirayotgan erkaklar, yoki o`zi ishlamasdan ayolini mehnati evaziga kun ko`rayotgan erkaklarning jamiyatini gender tenglik jamiyati deb bo`lmaydi. Ayollarda ham bunday streotiplarni uchratish mumkin: jamoat joylarda erkaklar bilan barobar gap talashayotgan ayollar, (asosan bozorlarda), Rahbar ayollarning oilada ham rahbarlik qilishga bo`lgan intilishlari bularning hammasi gender nazariyasining noto`g`ri tushunishda deb bilaman. Ushbu maqoladan ko`zlangan maqsad shundan iboratki bugungi kunda gender munosabatlari deganda jamiyatda ayollarning ustunligi emas, balki an`anaviy streotiplar va milliy mentalitetimizga asoslangan gender tushunchasini shakllantirish. Bu shunday tushunchaki unda gender tenglik deganda ayollar oilada jamiyatda o`z o`rnini topgan, qadriyatlarimiz hukmron, shuningdek, kuchli jins vakillariga bo`lgan hurmat e`tirofini bilgan, oila bilan birgalikda lozim bo`lsa hattoki rahbarlikni ham eplay olgan, shuningdek farzand tarbiyasida sharqona tarbiyani ustun deb bilan, mahramiyat chegaralarini bilgan haqiqiy o`zbek ayoli degan tushunchani shakllantirishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to`g`risida” O`zbekiston Respublikasining qonuni
2. “Erkaklar va ayollar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlar kafolatlari to`g`risida”gi QL-536-sonli O`zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida, hamda,
3. “Xotin-qizlarni tazyiq va zo`ravonlikdan himoya qilish to`g`risida”gi QL-537-sonli O`zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi
4. B.G`oipov So`g`d tarixidan lavhalar. Samarqand.”SamDU” 2020
5. [Библиографическая ссылка: Эпоха невежества [Электронный ресурс] // QuranAcademy.org: Академия Корана. 201]
6. Imom Buxoriy AL-ADAB AL-MUFRAD. online o`qish: <http://forum.ziyouz.com/index.php?topic=588.0>
7. Anbar Otin Qoralar falsafasi.
8. АНБАР ОТИННИНГ “ҚОРАЛАР ФАЛСАФАСИ” АСАРИДА ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАР **Мадина АХРОРОВА Имом Бухори сабоқлари** <https://www.bukhari.uz/?p=11443>
9. SHARQ MUMTOZ SHOIRALARI ASARLARIDA IJTIMOIIY-FALSAFIY QARASHLAR, HAMDA GENDER TENGLIGI MASALASI. (NOZIMAXONIM IJODI MISOLIDA) Ahrorova Madina Rahmatovna “Sharq tillarini o`qitishning dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 24 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7
10. O`ZBEK MUMTOZ SHOIRLARI IJODIDA GENDER TENGLIGI MASALASI. Ahrorova Madina Rahmatovna stajyor o`qituvchisi Samarqand Davlat chet tillar instituti E-mail: akhrorova.madina@mail.ru (O`zbekiston,Samarqand.)
12. G`ARB VA SHARQ AYOLLARINING IJTIMOIIY-FALSAFIY QARASHLARIDAGI TAFOVUTLAR Ergasheva Sevinchbonu Ahrorova Madina ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР:” ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР. Декабрь 2022 2-қисм Тошкент